

PIRIMQUL QODIROVNING TARIXIY ROMANLARIDAGI AYOLLARNING
JAMIYATDAGI O'RNI

G'aybullayeva Ruxshona Qahramon qizi

QarDU, Filologiya fakulteti, 025-30-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18693425>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" asarida tasvirlangan ayollar obrazi, jumladan, Amir Temurning kelini, Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim obrazi hayoti va jamiyatdagi o'rni ko'rsatib beriladi hamda yosh avlod tarbiyasi borasidagi qimmatli fikr-mulohazalari keltiriladi.

Kalit so'zlar: ayollar obrazi, ona, o'zbek ayollariga xos xususiyatlar, matonat, tarixiy haqiqat, jasorat, mehr.

O'zbek adabiyotida ko'pgina tarixiy asarlar mavjud, ammo ularning orasida o'zining ko'plab asarlari orqali inson qalbi, ijtimoiy jarayonlar va qadriyatlarni mukammal ochib bergan tarixiy roman yozuvchisi Pirimqul Qodirovning o'rni beqiyosdir. Uning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona lochin vidosi" kabi romanlari o'zbek adabiyotida munosib o'rin egallagan. "Ona lochin vidosi" asarida temuriylar davrida yashagan ma'rifatli va jasur ayol – Gavharshodbegimning hayot yo'li va fojiaiy taqdiri tasvirlanadi. Yozuvchi "ona lochin" obrazini Shoxrux Mirzoning umr yo'ldoshi, nazm ilmini yaxshi tushungan, fidoyi ona Gavharshodbegim timsolida tasvirlaydi. Butun bir sulolaga boshchilik qilgan, onalik mas'uliyati nevaralar, shuningdek, sulola yosh avlodlarini kamol toptirish Gavharshodbegimning zimmasiga tushadi. U xuddi ona lochindek ularni ko'z qorachig'idek asrashlikni Saroymulxonimdek o'zining sharaflilik burchi deb biladi. Shu o'rinda nega biz Gavharshodbegimni ona lochinga qiyos etamiz degan savol tug'iladi.

Asarda ona lochin haqidagi hikoyani eslaydigan bo'lsak, unda: "tog'da bir ona lochin yashardi, u har yili pana joyga tuxum qo'yib jo'ja ochar edi. Bir kuni lochin ketganda ilonlar kelib, uning tuxumlarini yeyishibdi-yu, o'rniga o'zlarining tuxumlarini qo'yib ketishibdi. Ona lochin mehr bilan tuxumlarni parvarishlabdi. Vaqti soati yetib tuxumlarlar teshilibdi, ichidan ilonbachchalar o'rmalab chiqibdi, ona lochin uyasidan ko'klarga uchib o'zini qoyalarga urib faryod qilibdi. Uning faryodidan tog'lar larzaga kelibdi"¹. Mana shu tariqa ona lochin qismati ayancli nihoyasiga yetadi. Gavharshodbegim shu ona lochin timsolidir. Negaki, buyuk xonzodaning yetuklik yillari noshukr nevara-chevaralarining taxt-talashuvlari pallasiga tog'ri kelgan edi. Uning har bir qarorida adolat va kechirimlilik tuyg'usini borligiga guvoh bo'lamiz.

Begim har on, har daqiqada farzandlariga mehr ulashishga, ularga nisbatan adolatli bo'lishga harakat qildi va buni uddasidan chiqdi desak, yanglishmagan bo'lamiz, chunki Abdulatifdek padarkush nabirasi tufayli ma'lum bir muddat hibsonada saqlansa ham, u Abdulatifning qatl ettirilishiga qattiq qarshi bo'lganining o'ziyoq unda adolat va kechirimlilik tuyg'usu kuchli ekanini ko'rishimiz mumkin.

¹ Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Sharq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001. 70-bet.

Aslida Shohrux Mirzodek podshohning malikasi, Ulug'bekdek olimning onasi bo'lish tashqaridan qaraganda, boshqalarda havas tuyg'usini uyg'otsa-da, Begim uchun baxt va saodat keltirganday tuyulsa-da, alida unday emas edi. Mana shunday shohona hayotning ichida ham yechimi yo'q ziddiyatlar, to'qnashuvlar shu qadar ko'p ediki, Gavharshodbegim har biri uchun o'zini qalqon qilib turishga harakat qilardi. Masalan, ulug' sarkarda va shoh Shohrux Mirzo har qanday masalada, goh siyosatda, goh tarbiyada, ba'zan davlat boshqaruvlarida ham Gavharshodbegim maslahati bilan o'z fikridan qaytgan holatlar ham bo'lgan. Bunga misol qilib, Shohrux o'g'li Ulug'bek Mirzoni sarkardalikka qiziqishi yo'qligi va u Baroqxon bilan bo'lgan jangda xushyor bo'lish o'rniga tuni bilan osmondagi yulduzlarga tikilib, rasad bog'lab chiqqanligi natijasida, ikki ming kishi vafot etganligi sababli Mirzo Ulug'bekdan jahli chiqadi. Boysunqurni Ulug'bekning o'rniga Samarqand taxtiga o'tkazmoqchi bo'ladi. Bu xabarni eshitgan Boysunqur yo'lga otlanadi. Ammo, Gavharshodbegim bu masalani aql-idrok ila sokin va uyatchan ohangda: "Mirzo Ulug'bek farzandingizga bobosidan o'tgan irsiy daholikni parvardigor ulug' sarkardalik shaklida emas, ulug' allomalik shaklida bergan"², - deydi. Bundan so'ng Shohrux Mirzo Boysunqur Mirzoni Samarqand taxtiga o'tkazish fikridan qaytadi.

Shuningdek, bu asarda Ulug'bek rafiqasi Husn Nigor xonimning obrazi ham yorqin tasvirlab berilgan. U ona sifatida o'g'lini yaxshi fazilatli, otasiga mehrli, vafodor qilib voyaga yetkaza olmagan uchun o'zini gunohkor deb biladi, chunki Abdulatif Husn Nigor xonimning otasi Xalil Sultonga o'xshar edi. U ham Abdulatifdek shavqatsiz, berahm qahrli podsholardan biri edi. U o'g'lining padarkush bo'lib katta gunohkor bo'lganini uqtirmoqchi bo'ladi, ammo bularning barchasi besamar ketadi. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, ushbu asarda o'zbek ayollarning vafoli, iboli, turmush o'rtog'iga itoatmand sadoqatli ekanligini Ulug'bekning qizi Habiba Sulton obrazi orqali ko'rishimiz mumkin. Turmush o'rtog'i bo'lgan Abdulla Mirzoni jonini saqlab qolish uchun hech narsadan qo'rqmay xatarli ishga qo'l uradi. Turmush urtog'ining hibsxonada yotganida, og'ir ahvolda uni tashlab qo'ymaydi, balki unga yelkadosh bo'ladi. Ayni shu xislatlar o'zbek ayollariga xos bo'lgan sadoqat, vafo, dardkashlik kabi fazilatlarning belgisidir. Yana bir o'zbek ayollariga xos xususiyatlardan biri bu itoatkorlikdir. Gavharshodbegim nafaqat turmush o'rtog'i, Shohrux Mirzoga, shuningdek, uning urug'-aymog'i qarindoshlariga ham itoatda bo'lgan. Shunday vaziyatlar bo'lganki, Gavharshodbegim o'ziga o'zi qoyil qolgan. Begim Abdulatifni Samarqanddan Hirotga, o'zining oldiga olib qaytish uchun yo'lga otlanganda: "o'n yettiga kirgan kelin ikkiqat ahvolda minglab chaqirim masofani yomg'irli qor-qirovli sovuq kunlarda bosib o'tib, xut oyida Tabriz yaqinidagi Sultoniya yetib borganini hozir eslasa, o'zining chidam-bardoshiga xayron qoladi"³. Gavharshodbegim faqatgina qanoatlilik, sabr-toqat, vafo, dovyuraklilik kabi hislatlar bor desak, adashgan bo'lamiz. Negaki, begimda bulardan tashqari mehribonlik, kamtarinlik, halollik, shukronalik, muloyimlik, farosatlilik kabi fazilatlar ham mavjud, ammo taqdir taqozosi bilan Gavharshodbegim shunchalik davlat ishlaridan charchagan ediki, uning endigi orzusi qonli urushlar boshqa bo'lmasligi, Sohibqiron davrida soni

² Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Sharq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001. 47-bet.

³ Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Sharq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001. 27-bet.

ikki yuz mingdan oshib ketgan qo'shin uch-to'rt barobar qisqartirilishi, ortib qolgan mablag'lar hisobiga maktab-u madrasalar, ko'prik va rabot qurilishini juda ham xohlar edi.

Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" asarida yaratilgan ayollar obrazi o'zining tarixiy-ruhiy salobati, matonati va milliy qadriyatlarga sodiqligi bilan alohida ajralib turadi. Adib ayol siymosini faqat oilaviy muhit doirasida emas, balki xalq taqdiri, tarix sinovlari va ma'naviy bardoshlilik mezonlari bilan uyg'un holda tasvirlaydi. Bu ayollar obrazida sabr, fidoyilik va ichki kuch timsoli mujassam bo'lib, ular voqealar rivojida ma'naviy tayanch vazifasini bajaradi. Mazkur jihatlarni O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidagi ayollar obrazi bilan qiyoslaganda, yanada yaqqolroq ko'rish mumkin. O'tkir Hoshimov ko'proq kundalik hayot manzaralari, mehr-oqibat, ona qalbining samimiyligi va oddiy insoniy tuyg'ular orqali ayolning ruhiy go'zalligini ochib beradi. Uning qahramonlari hayotiyligi, soddaligi va tabiiyligi bilan kitobxon qalbiga yaqinlashsa, Pirimqul Qodirov yaratgan ayollar obrazida tarixiylik, qat'iyat va ramziy ulug'vorlik ustunlik qiladi.

Demak, Pirimqul Qodirov asarlaridagi ayollar boshqa ijodkorlar talqinidan shunisi bilan farqlanadiki, ular nafaqat mehribon ona yoki vafodor yor sifatida, balki millat ruhini saqlovchi, og'ir sinovlarda ham bukilmaydigan ma'naviy qahramon darajasiga ko'tariladi. Adib ayol obrazini tarix va taqdir bilan bog'lab, uni xalqning sabr-toqati va davomiyligini ifodalovchi badiiy timsolga aylantiradi. Shu bois "Ona lochin vidosi"dagi ayollar obrazi o'zining ma'naviy qudrati, ramziy ma'nodorligi va tarixiy teranligi bilan o'zbek adabiyotidagi boshqa talqinlardan mazmunan kengroq va badiiy jihatdan salmoqliroq namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – B. 247.
2. Bobur Z.M. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 132.
3. Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 302.